

XORIJIY TIL ORQALI FANLARNI O'QITISHNING INTEGRATSION MODELI

ИНТЕГРАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТАМ С ПОМОЩЬЮ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

INTEGRATION MODEL OF TEACHING SUBJECTS THROUGH A FOREIGN LANGUAGE

**Ergasheva Shodiyaxon Eldor
qizi**

Toshkent davlat pedagogika
universiteti 1-bosqich
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy til va akademik fanlarni integratsiyalashga asoslangan zamonaviy ta'lim yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, Content and Language Integrated Learning (CLIL) texnologiyasining nazariy asoslari, uning kelib chiqishi, mazmuni va ta'lim jarayonidagi o'rni yoritib beriladi. Maqolada CLIL, mazmunga asoslangan o'qitish va ikki tilli ta'lim kabi fan-til integratsiyasiga yo'naltirilgan yondashuvlarning o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy til ta'limi, fan-til integratsiyasi, CLIL texnologiyasi, mazmunga asoslangan o'qitish, ikki tilli ta'lim, ingliz tilini o'qitish, immepsiya dasturlari, akademik fanlar, til kompetensiyasi, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье анализируются современные образовательные подходы, основанные на интеграции иностранного языка и академических предметов. В частности, освещаются теоретические основы технологии интегрированного обучения содержанию и языку (CLIL), ее происхождение, содержание и роль в образовательном процессе. В статье выявляются сходства и различия между подходами, направленными на интеграцию предмета и языка, такими как CLIL, обучение на основе содержания и билингвальное образование.

Ключевые слова: Обучение иностранным языкам, интеграция предмета и языка, технология CLIL, обучение на основе содержания, двуязычное образование, преподавание английского языка, программы погружения, академические предметы, языковая компетенция, образовательный процесс.

Annotation: This article analyzes modern educational approaches based on the integration of a foreign language and academic subjects. In particular, the theoretical foundations of Content and language integrated learning (CLIL) technology, its origin, content and role in the educational process are highlighted. The article reveals the similarities and differences between approaches aimed at subject-language integration, such as CLIL, content-based learning and bilingual education.

Keywords: Foreign language education, subject-language integration, CLIL technology, content-based learning, bilingual education, english language teaching, immersion programs, academic subjects, language competence, educational process.

Chet tili o'qituvchisining xorijiy til darslarida fanlararo mavzulardan foydalanishi yoki bir qator fanlar chet tilida o'qitilishi texnologiyasining asosida fani (fan bilan birga) va til o'rganishni integratsiyalash g'oyasi yotadi. Shunday qilib, xorijiy til muloqot va bilish (o'rganish) vositasi bo'lib, ta'limni ona va chet tillarida olib borish yagona jarayonga aylanadi. Bu g'oya gumanitar fanlarni o'rganishda ham, tabiiy va texnika fanlarini o'rganishda ham keng qo'llaniladi.

Ingliz tilini o'qitishda (English Language Teaching) fanga o'qitish va va ingliz tilini o'rganishni birlashtiradigan bir necha yo'nalishlar mavjud: Mazmun va tilni integratsiya qilib o'rganish; Mazmunga asoslanib o'qitish; O'quv dasturi mobaynida ingliz tilini o'rganib borish va Ikki tilli ta'lim (Content and Language Integrated Learning (CLIL); Content-based instruction; English across the curriculum va Bilingual education).

Mazmun va tilni integratsiya qilib o'rganish atamasi (Content and Language Integrated Learning (CLIL)) dastlab olim D. Marsh (D.Marsh) tomonidan 1994 yilda qo'llangan. D. Marshning (D.Marsh) fikriga ko'ra "integratsiya qilingan fan-til o'qitish

(CLIL) tushunchasi fanlar yoki bunday fanlar doirasida o'qitish ingliz tilida olib borilganda anglashiladi va bu yerda: ushbu fanining mazmunini o'rganish va bir vaqtning o'zida ingliz tilini o'rganish kabi ikkita maqsadga erishish nazarda tutiladi [D.Marsh "CLIL refers to situations where subjects, or parts of subjects, are taught through a foreign language with dual-focused aims, namely the learning of content and the simultaneous learning of a foreign language"].[2] Ushbu tushuncha juda keng ma'nolarda talqin qilinishini va faqatgina Yevropa ilmiy-metodik adabiyotlarda Mazmun va Tilni Integrallashtirib O'rganishning (Content and Language Integrated Learning (CLIL)) 40 dan ortiq ifodasi qo'llanilishini ta'kidlab o'tish lozim.

Masalan, Yevropa komissiyasi tomonidan qabul qilingan ta'rifda CLIL uning doirasida chet tili ta'lim vositasi sifatida amal qiladigan bir tushuncha deb qaraladi. D. Marshning yuqorida keltirilgan to'liq ta'rifiga ko'ra esa, CLIL fanni va bir vaqtning o'zida bevosita tilni ham o'rganishni nazarda tutadi. Shunday qilib, D. Marsh CLIL texnologiyasidan foydalanish: ingliz tilini o'rganish va akademik fanni o'rganish kabi ikki maqsadga erishishga qaratilganligini ta'kidlaydi. Bu g'oyadan foydalanish ingliz tilini bevosita o'rganish uchun qo'shimcha dars soatlari ajratmasdan o'rganish imkonini beradi, chunki u boshqa fanlarni o'qitish vositasi vazifasini bajaradi.

D. Graddol (D.Graddol) [2] CLIL texnologiyasidan foydalanish talabalarga ingliz tilini o'zlashtirganlik darajasini ancha yuqoriga ko'tarish imkonini beradi, deb hisoblaydi. D. Graddolning fikriga ko'ra, o'rganilayotgan fanni o'zlashtirish uchun ingliz tilini yuqori o'zlashtirganlik darajada bilish zarur shart hisoblanmaydi. Biroq CLIL tushunchasining talqiniga nisbatan bunday yondashuv qattiq tanqid ostiga olingan. Shuningdek, ingliz tilini, xususan, ingliz tilini asosiy malaka (core skill), deb hisoblaydi, chunki uni o'zlashtirish talabalarga muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. CLILni bunday tushunish internet texnologiyalari va globalizatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi tufayli ta'lim sohasida va umuman jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar sababli asosiy (o'ta muhim) hisoblanadi.

F. Bollning fikriga ko'ra, fan-til integratsiyasi g'oyasi boshqa g'oyalarga nisbatan yuqori rag'batlantirish (motivatsion) salohiyatga ega bo'lishining obyektiv sabablari bor:[3]

- Fanning mazmunini o'rganish zaruriyati talabalarni ingliz tilini o'zlashtirish darajasini oshirishga undaydi;
- Leksik yondashuvdan foydalaniladi, va u tufayli talabalar, masalan, matn o'qiyotganda til strukturalari va leksik birliklarini taniydilar va tahlil qiladilar;
- Til muhitiga sho'ng'ish, shuningdek, o'quv jarayonida o'z yutuqlarining ahamiyatini anglash kuzatiladi;
- fanining mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi, va XTni o'qitish va o'rganishning boshqa usullarida esa fanining mazmuni o'rganilayotgan til strukturalarining ko'rgazmali quroli (illyustratsiyasi) bo'lib xizmat qiladi.

Ko'plab tadqiqotchilar o'quv jarayonida fan-til integratsiyasini amalga oshirishda ikki asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatishadi:

«Kuchli» (Hard CLIL) – to'liq va qisman immersion dastur - fanlar xorijiy tilda o'rganilib, o'quv jarayonida birinchi navbatda, fan mazmunini o'rganishga qaratilgan ta'lim;

«Kuchsiz» (Soft CLIL) – asosan til o'rganishga asoslangan ta'lim - xorijiy til darslarida, fanlar mazmunini qisman o'rganishga qaratilgan ta'lim. Bunday bo'linish shartli ekanligini, ikkala yondashuv bir vaqtning o'zida bir-birini o'zaro to'ldirib turishini ta'kidlab o'tish lozim.

Aksariyat mutaxassislar CLIL texnologiyasidan foydalanish katta istiqbolga ega degan fikrda, ammo uni joriy qilish o'qitish haqidagi an'anaviy tushunchalar va qarashlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, CLIL texnologiyasini ta'lim jarayoniga tadbiq etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator holatlar mavjud. Muayyan fanlar professor-o'qituvchilari har doim yangiliklarni quchoq ochib kutib olishga tayyor emaslar, chunki ushbu texnologiyadan foydalanish o'qituvchi tomonidan juda ko'p tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Shuningdek, CLIL sohasida mutaxassislarini

tayyorlash bo'yicha dastur va treninglar sonining kamligi va ingliz tilini o'qitish dasturlarini boshqa fanlar bo'yicha dasturlar bilan muvofiqlashtirilmaganligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Shu bilan birga, globallashuv jarayoni bilan bog'liq bo'lmish xorijiy tillarni o'qitish sohasida isloklar o'tkazish zarurati aksariyat mamlakatlar ta'lim tizimlarida kelajakda CLIL texnologiyasini faol amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazmunni hisobga olib o'qitish (MHOO' - CBT) "... ingliz tilini o'qitishning muayyan mazmuni va vazifalarini integratsiya qilish ..., bir vaqtning o'zida fanini o'qitish va xorijiy tilda ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat". Bunday yondashuvda "ikkinchi o'rganilayotgan tilga o'rganish obyekti sifatida emas, balki akademik fan mazmunini o'qitish vositasi sifatida" qaraladi.

Ikki tilli (bilingval) ta'lim "ikkinchi tilda ham ko'nikma, ham malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, hamda bir vaqtning o'zida to'laqonli ta'lim olish bilan birga ona tilining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan to'liq yoki qisman ikkinchi (xorijiy) tilida olib boriladigan ta'lim" deb ta'riflanadi. Ikki tilli ta'lim Milliy assotsiatsiyasining (ITTMA - National Association for Bilingual Education (NABE)) ma'lumotlariga ko'ra, ikki tilli ta'limning ko'plab shakllari mavjud bo'lib, ko'p mamlakatlarda asrlar davomida amal qilib kelgan. "Ushbu tushunchaning keng ma'nolardagi talqini ikki tildan (professor-professor-o'qituvchilaryoki talabalar yoki har ikkisi tomonidan) turli xil pedagogik yoki ijtimoiy maqsadlar uchun qo'llashni anglatadi. Hozirgi AQShda demografik o'zgarish davri kechayotgan bir davrda, ikki tilli ta'lim torroq ma'no kasb etadi. Bunday talqin ingliz tilini o'rganuvchi talabalarning milliy (ona) tillari o'qitish tili sifatida qo'llaniladigan yondashuvlarni nazarda tutadi ". Ikki tilli dasturlarda tahsil oluvchi talabalar ingliz tilida ba'zan bir tilda tahsil oluvchi tengdoshlari yutuqlari o'zib ketadigan katta ilmiy muvaffaqiyatlarga erishishlariga qaramay, ikki tilli (bilingval) ta'lim ko'p bahs-munozara keltirib chiqaradi.

Olim A. Villigning (A.Willig) tadqiqotlari ikki tilli (bilingval) ta'lim dasturlari doirasida darslari ingliz tilida beriladigan ta'lim dasturlariga (English instructional programmes) nisbatan (taqqoslaganda) talabalarning akademik o'zlashtirish

darajalarini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi. Umuman, AQShda o'tkazilgan tadqiqotlar ta'lim jarayoniga ikki tilda (bilingval) o'qitishni to'g'ri joriy qilganda, ikki tilda (bilingval) o'qitish bir vaqtning o'zida ingliz tilini (xorijiy til sifatida) va akademik fanlarni o'rganishning eng samarali usuli ekanligini ko'rsatdi.

Til va fanning integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan dasturlarning aksariyatining asosiy xususiyatlari o'xshash, lekin, AQSH haqida gap ketganda, ular orasida ikki asosiy farq bor:

1. Ikki tilli (bilingval) ta'lim (ITT - BE) va tilga qisman immersiya (sho'ng'ish) dasturlarida (partial immersion programmes) dars o'tish tili talaba-talabalarning ona tilidir. To'la erta immersiya qilish (sho'ng'ish) dasturlarida (total early immersion programmes) o'qitish tili ikkinchi (o'rganiladigan) tildir.

2. Tilga immersiya (sho'ng'ish) dasturlari bo'yicha o'rgatishda barcha talabalar dastlab faqat ona tilida so'zlasha oladi va bir mamlakat yoki millat vakillari, ya'ni bir tilda so'zlashishadi. Odatda, talabalar o'rganayotgan tilni boshlang'ich darajada o'zlashtirgan bo'ladilar (so'zlasha oladilar). Ikki tilli (bilingval) ta'limda talabalarning ona tillari har xil bo'lishi mumkin va o'rganilayotgan til sifatida qaraladigan ingliz tilini o'zlashtirganlik darajasi esa turlicha bo'ladi.

Kasbga yo'naltirilgan o'qitish doirasida fan-til o'qitishni joriy qilishning zarurligini ko'plab mualliflar ko'tarib chiqishadi. Masalan, D.Wolf [4] akademik va sohada (oliy va o'rta-maxsus ta'limda) CLIL texnologiyasini qo'llash lozimligini qo'llaydigan olti xil sabab keltiradi:

- amaliy bilimlar va ko'nikmalar olish;
- shaxslararo muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi;
- madaniyatlararo muloqotning amalga oshirilishi;
- muayyan sohada sifatli ta'lim olish;
- mehnat bozorida raqobatbardoshlik;
- o'rganilayotgan akademik fanga turli nuqtai nazarlardan qarash imkoniyati.

Demak, tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, xorijiy til va fan mazmunini integratsiyalashga asoslangan yondashuvlar, xususan CLIL texnologiyasi, ta'lim

jarayonida ikki yo‘nalishli — akademik fan mazmunini chuqur o‘zlashtirish va xorijiy til kompetensiyalarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi.[5] Bunday integrativ ta’lim modeli talabalar bilimini amaliyotga yo‘naltirish, ularning bilish faolligi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

CLIL, mazmunga asoslangan o‘qitish va ikki tilli ta’lim kabi fan–til integratsiyasiga yo‘naltirilgan texnologiyalar globalizatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni amaliyotga joriy etish o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, fan va til dasturlarining o‘zaro muvofiqligi hamda institutsional qo‘llab-quvvatlash mavjudligini taqozo etadi.[6]

REFERENCES:

1. Marsh, D. Content and Language Integrated Learning: The European Dimension – Actions, Trends and Foresight Potential / D.Marsh. – [No place], 2002. –URL: <http://userpage.fu-berlin.de/elc/bulletin/9/en/marsh.html>.
2. Gaddol, D. English Next, British Council Publications, 2006 [Electronic resource] / D.Gaddol. –URL: <http://www.britishcouncil.org/learning-research-englishnext.htm>
3. Ball, Ph. What is CLIL? [Electronic resource] / Ph.Ball. – URL:<http://www.onestopenglish.com/clil/methodology/articles/article-what-is-clil/500453.article>
4. Wolff, D. Integrating language and content in the language classroom [Electronic resource]: Are transfer of knowledge and of language ensured? / D.Wolff // Asp [En ligne]. -2003. –P. 41-42. –URL: <http://asp.revues.org/1154> - (DOI: 10.4000/asp.1154).
5. Ergasheva Sh.E., Enhancing critical thinking skills at the lessons of foreign language. “Research-based transformation of teacher education: tradition as a basis for innovation” international conference on teacher education. P 547-551.

6. Ergasheva Sh., Yangilangan Konstitutsiya barqaror ekologik taraqqiyot va demokratik huquqiy rivojlanish poydevori. “Yangilangan Konstitutsiya–barqaror ekologik taraqqiyot va demokratik huquqiy rivojlanish poydevori” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 03.12.2025-yil. 501-bet.